

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI QISHLOQ XO‘JALIGIGA OID ILMIY MATNLARDA BIRINCHI SHAXS DEYKSISNING EKSPLISIT QO‘LLANILISH HOLATLARI HAQIDA

Bozorova Munisa Mamadiyor qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti

E-mail: munisa.durdona@gmail.com

Annotatsiya Ingliz va o‘zbek tillaridagi qishloq xo‘jaligiga oid ilmiy matnlarda birinchi shaxs deyksisining qo‘llanishi holatlari va ular qaysi holatlarda eksplisit tarzda qo‘llanishi haqida ma‘mulotlar berilgan. Keltirilgan misollar ikkala tilda mavjud bo‘lgan tilning o‘ziga xos uslublaridan kelib chiqqan holda farqlanishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: deyksis, ilmiy matn, eksplisit, birinchi shaxs, muallif, adresat.

EXPLICIT USE OF FIRST PERSON DEIXIS IN SCIENTIFIC TEXTS ON AGRICULTURE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Abstract. Information is provided about the use of first-person deixis in scientific texts on agriculture in English and Uzbek languages and in which cases they are explicitly used. The given examples show that both languages are different based on the specific styles of the language.

Key words: deixis, scientific text, explicit, first person, author, addressee.

Ilmiy uslubning, boshqa funksional uslublardan farqli o‘laroq nutqiy ifoda subyektivligidan “xalos bo‘lish”ga intilishi deyktik vazifaning bu yo‘nalishdagi adabiyotlarda namoyon bo‘lishiga oz ta’sirini o‘tkazadi. Bu sohadagi tadqiqotlarda, muallif shaxsini belgilovchi lingvistik elementlarning ilmiy bayonda qo‘llanilishi

butunlay inkor etilmasada, ifoda vositalarining me'yorlashuvi, umumlashuvi va o'ziga xos qoliplashuvi ushbu uslub belgisi ekanligi qayd qilinadi [2, 85].

Fan sohasida olimlar ko'pincha o'zlarini birinchi shaxs olmoshi bilan atashdan qochishadi, shuning uchun matn muallifini eksplitsit belgilash odatiy hol emas. Bu xususiyat nafaqat ingliz tilidagi ilmiy matnlarda, balki o'zbek tilidagi ilmiy matnlarda ham ko'p uchraydi. Biror- bir fakt muallifga noma'lum yoki tushunarsiz bo'lganda yoki muallif masalani faqat shaxsiy yondashuvi nuqtayi nazaridan o'rganish bilan cheklanishni istasa, odatda, "I" va "we" olmoshlari [4,55], o'zbek tilida esa "Men" va "biz" olmoshlari parallel holda qo'llanilishi mumkin. Bunday vaziyatda "I" olmoshi nutq subyektini ajratib ko'rsatuvchi asl ma'nosida emas, balki bayonning mazmuniga ba'zi bir oydinliklar kiritish maqsadida qo'llaniladi: This being said, I am also not suggesting that the utmost in High Tech can be achieved using only traditional techniques, tools and equipment and inputs. (New AG international, Dec, 2002- P.13).

Ilmiy adabiyotda shaxs deysisining ifodalanish xususiyati muallif (so'zlovchi, shaxs, adresant) va o'quvchi (adresat, axborot yo'naltirilgan shaxs) o'rtasidagi axborotni uzatish va qabul qilishda yuzaga keladigan munosabatlar bilan bog'liqligi hamda qishloq xo'jaligiga oid ilmiy matnlardada xabar adresanti va adresatini ko'rsatish uslublari quyidagi holatlarda namoyon bo'lishi aniqlandi. Tadqiqot muallifi kamtarlik nuqtayi nazaridan, o'zini axborot yo'naltirilgan shaxslar bilan bir qatorga qo'yishga harakat qilganda [4,57]: What I can tell you is that for every strategic row material we have not less than three qualified sources up to our standard quality (New AG international, June, 2007.-P.26) .

Muallif axborotni boshqa axborotdan chegaralash lozim bo'lganda: There are multiple research lines to achieve such aim and ours consists in developing what we call phyto- protectants a group of natural substances aimed to increase plant protection against pests and diseases. (New AG international, June, 2007.-P.27) .

Muallif yoritilayotgan materialga nisbatan o'z munosabatini bildirganda: We would like to offer a different opinion on the ideas presented in the article by Keshava and Caldwell (2006) (EHP, Jan, 2007. – P.498) .

“We” – “Biz” deyxsisining eksplisit holatdagi vazifalari quyidagilar [4,57]: Ish-harakat boshqaruvini ko‘rsatish (bunda “we” olmoshi ilmiy matn uchun xos bo‘lgan bilim egallash ma’nosiga ega bo‘lgan): We did not observe a link between leukocyte counts and platelet activation (EHP, Feb, 2010. – P. 845).

“We” – “Biz” olmoshining eksklyuziv shakli : We also proved physiologically that suitable exercise for warming – up and cooling down is indispensable for quick recovery from fatigue (New AG international, Dec, 2002 - P.28)..

Mualliflarning tadqiqotlar bajarilishidagi rolini ifodalashda : We then studied this using staring time as an indicator (New AG international, Sept, 2010. – P.31).

Birinchi shaxs deyxsis mualliflar faoliyatini, ularning mulohazalarini, tajribani tayyorlash va o‘tkazish kabilarni oydinlashtiradigan ilmiy nazariy va ilmiy – tajribaviy matnlar uchun xosdir Biror fikrga shubha, taxmin, gumon, xulosa kabi ma’nolarni berishda ham ilmiy matn muallifi deyxsisni eksplisit tarzda ko‘rsatishi mumkin [3, 13]: The new structure will allow us to focus even more intently on key growth areas with plant genetics and biotechnology, agrochemicals and urban pest management and better positions us to innovate in this very competitive global industry(New AG international, Dec, 2002- P.7).

Umuman, ilmiy matnda deyxsisning ekplisit ifodalanishi shaxs deyxsisining ifoda qilinish xususiyati muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi axborotni uzatish va qabul qilishda birinchi shaxs va uchinchi shaxs hamda ikkinchi shaxs deyxsislarining ilmiy matnda tutgan o‘rni beqiyosdir. Birinchi shaxs deyxsis faqatgina nutq subyektini ko‘rsatish bilan chegaralanib qolmasdan, balki ushbu axborotni qiziqarli yoki foydali deb hisoblagan hamda mualliflar nomidan chiqadigan boshqa shaxslarni ham ushbu jarayonga jalb qiladi [3, 14]: Tuproqni hajm massasini o‘zgarishi variantlar bo‘yicha yillar davomida bir xil qonuniyat asosida kechganligi uchun biz 2006 yil ma’lumotlari bilan cheklanamiz (O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, 2014, №2. B.35).

Bu esa E.Benvenistning obrazli ifodasiga binoan “men” atamasining o‘z aniq ma’nosini yo‘qotish natijasidir. Yana shuni unutmash kerakki, ilmiy ma’noda muallif ma’nosidagi “We” – “Biz” umumiy yoki noaniq I “men” ni ifodalash ham mumkin. Ushbu holatda “biz- men” atrofida qator shaxslar ko‘pchiligi yagona guruhga

birlashadi [1, 225]. Shu tarzda muloqot shaxsining ifodalanishida ko'plik soni ko'plikni emas, balki cheksizlikni bildiradi: We were thus able to develop a system enabling quantification of viral DNA. (EHP, Jan, 2007. – P.537).

Ilmiy matnlarda “we” kishilik va “our” egalik olmoshi birinchi shaxsni eksplitsit ko'rsatishning asosiy vositalaridir. Birinchi shaxsning aynan ushbu deyktik so'zlar yordamida ifodalanishi matnlarning o'ziga xos xususiyati, jumladan, ularning obyektlashtirilishi bilan bog'liqdir. Ilmiy maqolalar matnida adresatning ikkinchi shaxs deyksisi vositasida eksplitsit ko'rsatish amalda mumkin emas. Bu turdagi matnlarda muallifning pragmatik maqsadi bevosita adresatga murojaat qilish yo'li bilan emas, balki o'quvchiga intellektual ta'sirni faollashtiradigan gap bo'laklarini alohida ta'kidlash orqali oshadi [2, 14].

Ilmiy asarlar mulohaza va isbotdan iborat bo'ladi. Isbot aniq bayon qilinadi. Buning uchun ifoda to'liq bo'lishi lozim. Shunga ko'ra ham ilmiy matnlar uchun to'liq gaplar harakterli. Bunda to'liqsiz gap fikrning butunligiga putur yetkazadi. Ilmiy uslubda ot bilan ifodalangan gap bo'laklari, jumladan, ot-kesimlar, qaratuvchi-qaralmish birikmalari keng qo'llanadi. Ilmiy ifodada mantiqiy izchillikni ta'minlovchi muayyan so'z tartibiga amal qilish muhimdir. Bunda o'zbek adabiy tilining grammatik qurilishi talablariga rioya qilinadi. Shu bilan birga fikrni aniq izchil ifodalash uchun ba'zan gap bo'laklarining tartibini o'zgartirish ham mumkin [5, 165].

Ingliz va o'zbek tillaridagi qishloq xo'jaligiga oid ilmiy matnlarda deyksisning ekplisit ifoda etilishi ko'p uchramaydi. Shu jumladan, shaxs deyksisini ekplisit tarzda ko'rsatilishi faqatgina birinchi va uchinchi shaxs olmoshlari yordamida bajariladi. Ilmiy matnlarda birinchi shaxs deyksisini ekplisit ifoda etilishi muallifni tadqiqotning natijalariga yoki xulosalariga asosiy e'tiborni tortish uchun foydalanilganda qo'llaniladi. Bunda ham birlik sonidan ko'ra ko'plik sonidagi birlik olmoshlari ingliz tilida ham o'zbek tilida ham foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М.: Прогресс, 1974.-447 с.
2. Гвишиани Н.Б. Язык научного общения (вопросы методологии). – М.: Высшая школа. 1986. 1986. – 280с.
3. Шерматов А.А. Инглиз илмий – техник матнда дейкиснинг ифодаланиши: Филол. Фанл. Номз....автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2008. – 226.
4. Шерматов А.А Илмий матнларда биринчи шахснинг қўлланишига доир айрим мулоҳазалар// Хорижий филология, 2012. №4.- Б 55-58.
5. Ўзбек тили стилистикаси (ўқув қўлланма) / Тузувчилар: А.Шомақсудов, И.Расулов, Р.Қўнғуров, Ҳ.Рустамов. – Тошкент, 1983.- 248б